ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE

ilmiy-nazariy, metodik jurnal



Volume 4, Issue 10
2026
third-renaissance.uz

third-renaissance.uz

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 10 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

ТОМ 4, НОМЕР 10

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 10

URGANCH-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»
№10 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-10

Бош муҳаррир: | Главный редактор: Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Oybek Saporboyevich
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Galiyeva Margarita Rafaelovna
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Nasrullayeva Nafisa Zafarovna
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti
Cho'ponov Otanazar Otojonovich
Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti
Yakubova Matluba Tajibayevna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
Matnazarov Javlanbek Kabulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev
Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi
Ashirov Adhamjon Azimbayevich
Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.
Shaydurov Vladimir Nikolayevich
Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya
Abdullayev Utkir Ismoilovich
Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti
Matkarimova Sadoqat Maqsudovna
Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
Abdullayev Timur Pulatovich
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
Abdalov Umidbek Matniyazovich
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM
Yunusxo'jayev habibulla Zafar o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich
Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi
Kryukova Tatyana Leonidovna
Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich
Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya
Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM
Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna
Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM
Sherov Alisher Bakberganovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM
Voronsova Yuliya Vladimirovna
Iqtisodiyot fanlari nomzodi
Moskva davlat boshqaruvi universiteti
Jabborov Umarbek Rustambekovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
Cho'ponov San'at Otanazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
Niyazmetov Islambek Masharipovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor
Ma'mun Universiteti NTM
Adilov Zafar Yunusovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
Boltayev Abdurahim Amanovich
Falsafa fanlari doktori, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
Zoirov Erkin Xalilovich
Falsafa fanlari doktori, dotsent
Buxoro davlat texnika universiteti
Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna
Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich
Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
Abdullayev Ravshanbek Babajonovich
Tibbiyot fanlari doktori, professor
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
Esamuratov Aybek Ibragimovich
Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
Samandarova Barno Sultonovna
Biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
Tajiyeva Zebo Baxodirovna
Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li
Ma'mun Universiteti NTM

OAK Rayosatining 2024-yil 27-sentabrdagi № 01-08/3068/17-sonli qarori, Tarix va filologiya 5.03.2026-yildagi 382/6-sonli qarori bilan, psixologiya, iqtisodiyot va pedagogika fanlari bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Page Maker | Верстка | Sahifalovchi: H.Yunusxo'jayev

Контакт редакции журнала. third-renaissance.uz
НОУ «Университет Мамун», город Ургенч,
ул. Саноатчилар, дом 9, МСГ Ашхабад, 220100.
Web: https://third-renaissance.uz/; Email: info@mamunedu.uz
Тел: (+998-88) 506-90-90

Editorial office of the journal: third-renaissance.uz
Mamun University (NEI), Urgench city,
9 Sanoatchilar Street, Ashkhabad MFY, 220100.
Web: https://third-renaissance.uz/; Email: info@mamunedu.uz
Phone: (+998-88) 506-90-90

ISSN: 2181-0000
third-renaissance.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

PSIXOLOGIYA

Ibragimova Nasiba Muminovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
E-mail: muminovna83@mail.ru
ORCID: 0000-0002-3234-1948

TALABALARDA PARTISIPATIV BOSHQARUV KOMPETENSIYASINING NAMOYON BO'LISHIDA JINS OMILINING PSIXODIAGNOSTIK TAVSIFI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000

ANNOTATSIYA

Maqolada talabalarda partisipativ boshqaruv kompetensiyasi va qaror qabul qilish koping-strategiyalarining namoyon bo'lishida jins omilining psixodiagnostik xususiyatlari o'rganilgan. Ma'lumotlar J. Parnell va E. Bell hamda T. Kornilova metodikalari yordamida yig'ilib, Mann–Uitni U mezoni orqali tahlil qilindi. Natijalar erkak talabalarda tashkiliy-natijaviy yo'nalish va giperhushyorlik, ayol talabalarda esa ijtimoiy-kommunikativ yondashuv hamda hushyorlik va ehtiyotkorlik kopinglari ustunligini ko'rsatdi. Farqlar gender ustunligini emas, balki boshqaruvdagi komplementar psixologik resurslarni aks ettiradi.

Kalit so'zlar: partisipativ boshqaruv, qaror qabul qilish, koping-strategiyalar, gender xususiyatlari, talabalar.

АННОТАЦИЯ

В статье изучены психодиагностические особенности компетенции партисипативного управления и копинг-стратегий принятия решений у студентов с учетом гендерного фактора. Данные собраны по методикам Дж. Парнелла, Э. Белла и Т. Корниловой и обработаны U-критерием Манна–Уитни. Результаты выявили преобладание у юношей организационно-результативной направленности и гипербдительности, а у девушек — социально-коммуникативного подхода, бдительности и защитных копингов. Различия отражают не превосходство пола, а наличие комплементарных ресурсов в управлении.

Ключевые слова: партисипативное управление, принятие решений, копинг-стратегии, гендерные особенности, студенты.

ABSTRACT

The article examines the psychodiagnostic characteristics of participative management competence and decision-making coping strategies among university students across gender. Data collected via J. Parnell, E. Bell, and T. Kornilova instruments were analyzed using the Mann–Whitney U test. Results show that male students lean toward organizational-resultative orientation and hypervigilance, while female students favor social-communicative management, vigilance, and protective coping. These differences reflect complementary psychological resources in management rather than gender superiority.

Keywords: participative management, decision making, coping strategies, gender characteristics, students.

Kirish. Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar sharoitida inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi hamda boshqaruv jarayonlaridagi faol ijtimoiy ishtirokini ta'minlash alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Oliy ta'lim tizimida talabalarni faqat bilim oluvchi sifatida emas, balki qarorlar qabul qilish hamda tashkiliy-boshqaruv jarayonlarida konstruktiv ishtirok etuvchi sub'yekt sifatida ko'rish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarning intellektual va boshqaruv salohiyatini oshirish hamda gender tenglikni ta'minlash borasida tizimli davlat siyosati olib borilmoqda. Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (PF-60-son Farmon) va "O'zbekiston - 2030" strategiyasida (PF-158-son Farmon, PQ-300-son Qaror) inson kapitalini rivojlantirish, oliy ta'lim bilan qamrov va akademik mustaqillikni oshirish, yoshlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi faolligini kuchaytirish strategik maqsad qilib belgilangan [2][3].

Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (PF-5847-son Farmon) hamda 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi (SQ-297-IV-son Qaror) xotin-qizlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ularning ijtimoiy-siyosiy hamda boshqaruv faoliyatidagi ulushini oshirishni ko'zda tutadi [1][4].

Shuningdek, kasbiy ta'limda boshqaruvni takomillashtirishga qaratilgan PF-190-son Farmon va ta'lim jarayonlarini tartibga soluvchi Vazirlar Mahkamasining 578-son qarori boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish hamda iqtidorli va oilali talabalar uchun munosib ta'lim muhitini yaratish bo'yicha muhim me'yoriy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu islohotlar nuqtai nazaridan partisipativ boshqaruv ta'lim jarayonida qarorlar faqat rahbariyat tomonidan emas, balki talabalarning ham faol ishtiroki, jamoaviy muhokama, muloqot va mas'uliyatni teng bo'lishishi asosida qabul qilinishini anglatadi. Partisipativ boshqaruv kompetensiyasi universal sifat sifatida qaralsa-da, uning namoyon bo'lishida individual-psixologik xususiyatlar bilan birga jins omili ham muayyan rol o'ynaydi.

Talabalarning qaror qabul qilishga tayyorligi, xavf-xatarlarni baholashi, muqobil variantlarni ishlab chiqishi, mas'uliyatni o'z ustiga olishi va jamoaviy hamkorlikdagi xulq-atvor xususiyatlarini psixodiagnostik o'rganish gender stereotiplaridan xoli

bo‘lgan obyektiv ilmiy ma’lumotlarni beradi. Gender tenglikni ta’minlash barcha jabhalarda psixologik xususiyatlarning bir xilligini emas, balki erkak va ayol talabalarning individual-psixologik farqlarini inobatga olgan holda ta’lim va boshqaruv jarayonini tabaqalashtirilgan (differensial) tarzda tashkil etishni talab qiladi.

Shu sababli, ushbu maqolada talabalarda partisipativ boshqaruv kompetensiyasi va qaror qabul qilish xususiyatlarining jins omiliga ko‘ra farqlanishi psixodiagnostik hamda statistik metodlar yordamida tahlil qilinadi, aniqlangan tafovutlarning psixologik mazmuni ochib beriladi hamda oliy ta’lim amaliyotida ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarda partisipativ boshqaruv kompetensiyasining namoyon bo‘lishi qaror qabul qilish, liderlik, mas’uliyat va gender omillari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ushbu muammo sohadagi xorijiy, MDH va mahalliy tadqiqotlarni kompleks tahlil qilishni talab etadi.

Xorijiy ilmiy izlanishlarda partisipativ boshqaruv shaxsning qaror qabul qilishdagi faol sub’yektivligi hamda mas’uliyatni o‘ziga olish tayyorgarligi sifatida talqin qilinadi (J.A. Parnell, E.D. Bell) [11]. Bunda gender omilining roli biologik jinsdan ko‘ra ko‘proq tashkiliy muhit va ijtimoiy rollarga bog‘liqligi aniqlangan (S. Schesniy) [13]. Jumladan, K. Plyukkelman va hamkasblari partisipativ qaror qabul qilish hamda liderlikka intilish o‘rtasida gender moderatorlik vazifasini bajarishini ko‘rsatib, rahbarlikda bo‘lmagan ayollarda bu bog‘liqlik kuchliroq bo‘lsada, ularning qaror jarayonlariga jalb etilishi nisbatan pastligini ta’kidlashgan. G. Lorant esa qaror qabul qilishdagi gender farqlarini tavakkalchilikka munosabat va ijtimoiy mas’uliyat hissiga bog‘laydi [7][12]. Metodologik jihatdan ushbu jarayonlar Melbourne Decision Making Questionnaire (Melburn qaror qabul qilish so‘rovnomasi) asosida produktiv (hushyorlik) va noadaptiv (mas’uliyatdan qochish, kechiktirish, haddan tashqari hushyorlik) koping-strategiyalarga ajratib o‘rganiladi.

MDH va Rossiya psixologiyasida qaror qabul qilishning individual-psixologik mexanizmlari T.V. Kornilova maktabi tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Uning rahbarligida o‘tkazilgan kross-madaniy tadqiqotlar emotsional intellekt hushyorlik strategiyasining oshishiga va noadaptiv uslublarning kamayishiga xizmat qilishini (I.A. Chumakova, Y.V. Krasavtseva), shuningdek, shaxsda bir vaqtning o‘zida bir nechta qaror strategiyalari latent profillar ko‘rinishida uyg‘unlashishini ko‘rsatdi (L.B. Maksarova, Z. Ouyan) [5]. D. Minasyan va G. Tovmasyan esa gender va boshqaruv qarorlari o‘rtasidagi tafovutlarni ijtimoiy rollar prizmasi orqali asoslaganlar [9].

O‘zbekiston psixologiyasida yoshlarning ijtimoiy faolligi va boshqaruv qarorlarining ijtimoiy-psixologik omillari A. Nazarov hamda B.M. Xakimova tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, so‘nggi yillarda oliy ta’limda ayollar ulushining ortishi va ularning boshqaruvdagi ishtirokiga oid amaliy izlanishlar ko‘lami kengaymoqda [10] [14].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan 300 nafar talaba (187 nafar ayol va 113 nafar erkak) ishtirok etdi. Empirik ma’lumotlarni yig‘ishda J.A. Parnell va E.D. Bellning “Partisipativ qaror qabul qilishga moyillik shkalasi” (Tashkiliy samaradorlik hamda Boshqaruv tasavvurlari shkalalari bo‘yicha) va T.V. Kornilovaning “Qaror qabul qilish so‘rovnomasi” (MDMQ) (Hushyorlik, Qochishga moyillik, Kechiktirish va Juda hushyorlik koping-strategiyalari bo‘yicha)

metodikalaridan foydalanildi [5][11]. Olingan natijalar SPSS dasturida qayta ishlanib, erkak va ayol talabalar o‘rtasidagi tafovutlarning statistik ahamiyati parametrik bo‘lmagan Mann–Uitni U mezoni yordamida ($p<0,05$; $p<0,01$; $p<0,001$) baholandi.

Natijalar tahlili. Talabalarda partisipativ boshqaruv kompetensiyasining namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash maqsadida empirik ma’lumotlar gender omili kesimida tahlil qilindi. J.A. Parnell va E.D. Bellning “Partisipativ qaror qabul qilishga moyillik shkalasi” bo‘yicha olingan natijalar normal taqsimot shartlariga mos kelmagani sababli erkak va ayol talabalar o‘rtasidagi tafovutlar parametrik bo‘lmagan Mann–Uitni U mezoni yordamida baholandi. Quyidagi 1-jadvalda partisipativ boshqaruv kompetensiyasining tarkibiy komponentlari bo‘yicha aniqlangan statistik ko‘rsatkichlar va ularning gender diferensiatsiyasi keltirilgan.

1-jadval

John A. Parnell va Edward D. Bell tomonidan ishlab chiqilgan “Partisipativ qaror qabul qilishga moyillik shkalasi” bo‘yicha jins ko‘rsatkichlari jihatidan statistik tahlil (Mann Uitni n=300)

	Jinsi	N	O‘rtacha rang	Ranglar summasi	U	P
Tashkiliy samaradorlik	ayol	187	138,00	25 806,00	8 228,00	0,001***
	erkak	113	171,19	19 344,00		
	jami	300				
Boshqaruv tasavvurlari	ayol	187	160,00	29 920,00	12 342,00	0,015*
	erkak	113	134,78	15 230,00		
	jami	300				

Izoh: *p<0,05; ***p<0,001.

Olingan empirik natijalar talabalarda partisipativ boshqaruv kompetensiyasining shakllanishi va namoyon bo‘lishida jins omilining o‘ziga xos diferensial ta’sirini va psixologik xususiyatlarini aniq ochib beradi.

Tashkiliy samaradorlik subshkalasi bo‘yicha erkak talabalarning o‘rtacha rang ko‘rsatkichi ayol talabalarnikiga nisbatan statistik jihatdan ahamiyatli darajada yuqori chiqdi ($U=8228,00$; $p<0,001$). Mazkur tafovut erkak talabalarning boshqaruv jarayonida ko‘proq aniq maqsadlarga erishish, resurslarni taqsimlash hamda operativ va instrumental vazifalarga e’tibor qaratishini anglatadi. Shuningdek, ularda tashkiliy holatlarda mas’uliyatni o‘z ustiga olish, qat’iy qarorlar qabul qilish hamda natijadorlikka yo‘naltirilgan faoliyatda yetakchilik ko‘rsatish tendensiyasi nisbatan ustunlik qiladi.

Boshqaruv tasavvurlari subshkallasida esa aksincha tendensiya kuzatilib, ayol talabalarning o‘rtacha rang ko‘rsatkichi erkak talabalarnikiga qaraganda statistik ishonchli darajada yuqori ekani aniqlandi ($U=12342,00$; $p<0,05$). Bu natija ayol talabalarda boshqaruv jarayonini faqat tashkiliy nazorat emas, balki guruh a’zolari o‘rtasidagi muloqot, o‘zaro kelishuv hamda barchaning fikrini inobatga olish deb idrok etish xususiyati kuchli ekanligini ko‘rsatadi. Ular jamoaviy qarorlar qabul qilishda nizolarni yumshatish, ishtirokchilarning manfaatlarini muvofiqlashtirish va muloqotga asoslangan demokratik uslubga ko‘proq tayonadilar.

Umuman olganda, olingan ma’lumotlar partisipativ boshqaruv kompetensiyasida jinslararo superiorlikni emas, balki uning funksional tabaqalanganligini ko‘rsatadi. Ya’ni erkak talabalarda partisipativlikning tashkiliy-natijaviy (instrumental) yo‘nalishi,

ayol talabalarda esa ijtimoiy-kommunikativ (relatsion) xarakteri ustunlik qiladi. Shu sababli oliy ta'lim amaliyotida talabalarning boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishda ushbu gender-diferensial xususiyatlarni inobatga olish va har ikkala komponentni integratsiyalashgan holda shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarda partisipativ boshqaruv kompetensiyasining psixologik asoslarini chuqurroq anglash qaror qabul qilish jarayonida qo'llaniladigan koping-strategiyalarni tahlil qilishni talab etadi. Shu maqsadda T.V. Kornilovaning "Qaror qabul qilish so'rovnomasi" (MDMQ) yordamida talabalarning noaniqlik sharoitidagi qaror qabul qilish usullari gender omili bo'yicha o'rganildi va Mann–Uitni U mezoni yordamida statistik baholandi (2-jadval).

2- jadval

T.V.Kornilovaning "Qaror qabul qilish so'rovnomasi" bo'yicha jins ko'rsatkichlari jihatidan statistik tahlil (Mann Uitni n=300)

	Jinsi	**N**	**O'rtacha rang**	**Ranglar summasi**	**U (manuitni mezon)**	**P**
Hushyorlik	ayol	187	164,80	30 817,60	8 639,40	0,000***
	erkak	113	127,00	14 351,00		
	jami	300				
Qochishga moyillik	ayol	187	161,50	30 200,50	9 257,50	0,005**
	erkak	113	132,46	14 967,98		
	jami	300				
Kechiktirish	ayol	187	158,70	29 676,90	9 781,10	0,035*
	erkak	113	137,09	15 487,17		
	jami	300				
Juda hushyorlik	ayol	187	140,20	26 217,40	8 639,40	0,008**
	erkak	113	164,08	18 540,02		
	jami	300				

Izoh: *p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001.

T.V. Kornilovaning "Qaror qabul qilish so'rovnomasi" (MDMQ) bo'yicha olingan empirik ma'lumotlar talabalarda noaniqlik va risk sharoitida xatti-harakatlarni tartibga solish strategiyalari jins omiliga ko'ra xususiyatli ravishda differensiyalanishini ko'rsatdi.

Hushyorlik subshkasi bo'yicha ayol talabalarning o'rtacha rang ko'rsatkichi erkak talabalarnikiga nisbatan statistik jihatdan o'ta yuqori darajada ishonchli farq qildi ($U=8639,40$; $p<0,001$). Ushbu natija ayol talabalarga qaror qabul qilish bosqichida refleksiv va kognitiv tahlilning ustuvorligi xosligini tasdiqlaydi. Yoki boshqacha aytganda, ular muammoli vaziyat yuzaga kelganda muqobil variantlarni har taraflama taroziga tortish, ehtimoliy xavf-xatarlarni oldindan prognozlashtirish hamda qarorning ijtimoiy va shaxsiy oqibatlarini har taraflama baholashga ko'proq mo'ljal oladilar.

Shu bilan birga, qochishga moyillik ($U=9257,50$; $p<0,01$) hamda kechiktirish ($U=9781,10$; $p<0,05$) subshkalarida ham ayol talabalarda o'rtacha rang ko'rsatkichlari erkak talabalarnikidan statistik jihatdan ahamiyatli darajada yuqori ekani aniqlandi. Mazkur holat ayollarda noaniqlik va subyektiv risk darajasi yuqori bo'lgan sharoitda o'zini himoyalash va ehtiyotkorlik mexanizmlarining faollashuvi bilan izohlanadi.

Xususan, kechiktirish va qochish strategiyalari bu yerda destruktiv disfunksiya emas, balki impulsiv va xatoga boy qarorlar qabul qilishning oldini oluvchi, qo‘shimcha axborot to‘plash va vaziyatni psixologik qayta ishlashga yo‘naltirilgan protektiv (himoya) koping-resurs vazifasini bajaradi.

Aksincha, Juda hushyorlik (giperhushyorlik) subshkallasida teskari qonuniyat namoyon bo‘lib, erkak talabalarning o‘rtacha rang ko‘rsatkichi ayol talabalarnikiga qaraganda statistik ishonchli darajada yuqori chiqdi ($U=8639,40$; $p<0,01$). Giperhushyorlik ko‘rsatkichining yuqoriligi erkak talabalarda vaqt tanqisligi, kognitiv murakkablik yoki yuqori psixosemantik taranglik sharoitida ham harakatni to‘xtatib qo‘ymaslik, tezkor nazoratni o‘rnatish va operativ mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish tendensiyasi ustunligini ko‘rsatadi. Ular qaror qabul qilish jarayonida hissiy stessga qaramasdan, vaziyatga faol va instrumental aralashuvni afzal ko‘radilar.

Xulosa va tavsiyalar

Olingan empirik natijalar talabalarda partisipativ boshqaruv kompetensiyasi hamda noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish koping-strategiyalarining namoyon bo‘lishida jins omilining o‘ziga xos diferensial xususiyatlarini aniq ochib berdi.

Birinchidan, partisipativ boshqaruv ko‘rsatkichlari tahlili erkak talabalarda boshqaruvning tashkiliy-natijaviy yo‘nalishi ustunligini ko‘rsatdi, ayol talabalarda esa ijtimoiy-kommunikativ (relatsion) xarakter ustuvor ekani aniqlandi. Ikkinchidan, qaror qabul qilish strategiyalarida ayol talabalarda hushyorlik, qochishga moyillik va kechiktirish kabi refleksiv-ehtiyotkorlik mexanizmlari yuqori ko‘rsatkichni tashkil etgan bo‘lsa, erkaklarda noaniq sharoitda tezkor nazorat va faol pozitsiyani egallashni aks ettiruvchi Juda hushyorlik strategiyasi ustun chiqdi. Uchinchi ilmiy xulosa shundaki, aniqlangan bu gender-diferensial farqlar bir jinsning boshqasidan ustunligini emas, balki boshqaruv faoliyatida biri ikkinchisini to‘ldiruvchi (komplementar) psixologik resurslar mavjudligini tasdiqlaydi.

Ushbu xulosalarga tayanib, oliy ta’lim amaliyotida talabalarning boshqaruv va qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha bir qator amaliy tavsiyalar ilgari suriladi. Xususan, OTMlarda o‘z-o‘zini boshqarish faoliyatini tashkil etishda gender-diferensial yondashuvni qo‘llash, ya’ni erkak talabalarda ijtimoiy-muloqot ko‘nikmalarini, ayollarda esa operativ tavakkalchilik sifatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, Universitet psixologik xizmati tomonidan samarali koping-strategiyalar bo‘yicha maxsus treninglar o‘tkazish hamda talabalar o‘z-o‘zini boshqarish organlarida har ikki jinsning komplementar resurslarini birlashtiruvchi gibrid jamoalarni shakllantirish boshqaruv qarorlarining sifatini va guruhdagi emotsional barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi SQ-297-IV-son Qarori.

5. Корнилова, Т. В. (2016). *Психология риска и принятия решений*. Москва: Юрайт, 456 с.

6. Красавцева, Ю. В., Корнилова, Т. В. (2018). Эмоциональный интеллект и интуиция в регуляции принятия решений. *Психологический журнал*, 39(3), 29–38. https://doi.org/10.31857/S020595920000062-8

7. Lorant, G. (2018). Risk attitude, social responsibility, and gender differences in decision-making processes. *Journal of Behavioral and Experimental Economics*, 74, 115–124. https://doi.org/10.1016/j.socec.2018.04.003

8. Максарова, Л. Б., Оуян, З. (2021). Латентные профили стратегической регуляции принятия решений у студентов. *Вопросы психологии*, 4, 112–124.

9. Минасян, Д. А., Товмасян, Г. С. (2020). Гендерные аспекты принятии управленческих решений в современной организации. *Бюллетень науки и практики*, 6(5), 340–348.

10. Nazarov, A. S. (2020). *Boshqaruv qarorlari qabul qilishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari*. Toshkent: Fan va texnologiya, 184 b.

11. Parnell, J. A., & Bell, E. D. (1994). Assessing propensity for participative decision making: Scale development and validation. *Educational and Psychological Measurement*, 54(2), 410–423. https://doi.org/10.1177/0013164494054002015

12. Plueckelman, K., Smith, R., & Taylor, M. (2021). Gender as a moderator in participative leadership and decision-making engagement. *Leadership & Organization Development Journal*, 42(6), 889–904. https://doi.org/10.1108/LODJ-10-2020-0451

13. Szczesny, S. (2019). Organizational environment versus biological gender in managerial choice and delegation. *European Journal of Work and Organizational Psychology*, 28(4), 512–525. https://doi.org/10.1080/1359432X.2019.1616012

14. Xakimova, B. M. (2021). Oliy ta’lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollik va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishning psixologik omillari. *Psixologiya*, 3(2), 45–52.

15. Чумакова, И. А. (2019). Связь эмоционального интеллекта с продуктивными и неадаптивными копинг-стратегиями принятии решений. *Вестник Московского университета. Серия 14. Психология*, 2, 78–96.